



INGLIZ TILNI O'QITISHDA MADANIYAT, ADABIYOT VA
ZAMONAVIY METODLARNING AHAMIYATI

Egamberdiyeva Durdonaxon Ziyodbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: @egamberdiyevadurdona08gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishning zamonaviy metodlari va adabiyotning tillarni o'rganishdagi o'rni tahlil qilinadi va an'anaviy metodlarga qo'shimcha ravishda zamonaviy o'qitish usullarining o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, S. Krashen, J. Jalolov va boshqa olimlarning chet tillarini o'qitishga doir interaktiv metodlari, ilmiy nazariyalari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ-didaktik, innovatsion, metodlar, til o'rganuvchilar, onlayn platformalar.

Abstract: This article analyzes modern methods of teaching foreign languages and the role of literature in language learning. In addition to traditional methods, the importance of modern teaching approaches in developing students' language skills is highlighted. Furthermore, interactive methods and scientific theories related to foreign language teaching proposed by researchers such as S. Krashen and J. Jalolov are discussed.

Keywords: communicative-didactic, innovative, methods, language learners, online platforms.

Аннотация: В данной статье анализируются современные методы обучения иностранным языкам и роль литературы в изучении языков. Помимо традиционных методов, подчеркивается важность современных подходов к обучению для развития языковых навыков учащихся. Также рассматриваются интерактивные методы и научные теории, предложенные



такими исследователями, как С. Крашен и Дж. Жалолов, в области преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: коммуникативно-дидактический, инновационный, методы, изучающие язык, онлайн-платформы.

Bugungi kunda chet tillarini o'qitish dunyo bo'ylab dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu mavzu doirasida ko'plab olimlar, lingvistlar izlanishlar olib bormoqdalar. Shuningdek, o'quvchilarning ma'lum bir til doirasidagi lingvistik bilimlarini oshirish maqsadida o'qitish jarayonida an'anaviy metodlarga qo'shimcha tarzda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv yondashuvlardan ham foydalanilmoqda. Ayniqsa, biror xorijiy tilni o'qitishda o'sha til adabiyotidan foydalanish o'quvchilarning til va nutq ko'nikmalarini yanada rivojlantirishda samarali usul bo'la oladi. Tadqiqotlarga ko'ra, insonning til o'rganish qobiliyati o'sha tilda tabiiy ravishda tushunarli ma'lumot olish bilan bog'liq, ya'ni S. Krashenning "Input hypothesis" nazariyasiga ko'ra, til o'rganish uchun shu tilda ko'p o'qish va eshitish muhim ahamiyatga kasb etadi.¹ Inson tilni samarali o'zlashtirishi uchun tushunarli ma'lumot olishi kerak. Bu borada S. Krashen til o'rganuvchilar uchun i+1 modelini taklif qiladi, unga asosan o'rganuvchilar hozirgi bilim darajasidan biroz yuqoriroq darajadagi ma'lumotni tushunib, tahlil qilsa, ularning til o'rganish jarayoni yanada samaraliroq bo'ladi.² Bu usuldan pedagog xodim ham tilni o'qitish jarayonida foydalanishi mumkin, ya'ni u o'z o'quvchilariga biroz murakkabroq bo'lgan matn yoki audioni berish orqali o'rganuvchilar darajasini asta-sekin oshirishi mumkin. Shuningdek, S. Krashen chet tillarini o'rganish jarayoniga psixologik yondashib, unga o'quvchining kayfiyati yoki o'rganishga bo'lgan xohishi ham ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.³

O'zbek lingvistlaridan biri J. Jalolov ham chet tillarini o'qitish bo'yicha bir qancha prinsiplarni sanab o'tadi. Chet tillarini o'qitish metodikasi pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. Xorijiy tilarni o'qitishda millatlararo muloqot,

¹ Krashen S. Principles and practice in second language acquisition. – Pergamon press, 1982

² Krashen S. D. Principles and practice // Learning. – 1982. – T. 46. – №. 2. – C. 327-69.

³ Krashen S. The input hypothesis: An update // Linguistics and language pedagogy: The state of the art. – 1992. – C. 409-431.



kommunikativ yondashuv va mashq texnologiyasi eng yaxshi usullar sifatida qaraladi. Uning nazriyasiga ko'ra, chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat va u muloqotni shakllantirishda bir qancha metodlarni keng qo'llaydi.⁴

1. **Kommunikativ didaktika metodi.** Bu metodni qo'llashdan asosiy ko'zlangan maqsadlar o'quvchilarni guruh bo'lib ishlashga o'rgatish, suhbatlashish va guruh bo'lib ishlashga urg'u berish, o'quvchilarni shu tilda erkin fikr bildirishga o'rgatish va asosan, og'zaki nutqni rivojlantirishdir.

2. **Madaniyatlararo muloqot yondashuvi.** Bunda xorijiy tilni faqat linivistik bilim sifatida emas, balki madaniy kontekstda ham o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'rganilayotgan til mamlakatining madaniyati va urf-odatlarini bilan tanishiladi. Bu esa tilni yanada tezroq va samaraliroq o'rganishga yordam beradi.

3. **Mashq texnologiyasi** bilan yangi o'rganilgan materiallarni interaktiv vositalar orqali mustahkamlash mumkin.

Bu metodlar tilni o'qitishning samarali usuli sifatida ko'p yillar qo'llanib kelindi, biroq hayotimizga zamonaviy texnika-texnologiyalar kirib kelishi bilan kompyuter va elektron qurilmalar bilan integratsiyalashgan zamonaviy texnologiyalar va yangi metodlarni ishlab chiqishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda tilni samarali o'rgatish uchun onlayn platformalar va mobil ilovalardan keng foydalanilmoqda. Bu esa dastur asosida o'qitish ya'ni kompyuter texnologiyalari asosida o'qitish metodining shakllanishiga olib keldi. Masalan, o'quvchilar yangi o'rgangan so'z va iboralarini yoki grammatik shakllarini Kahoot.it yoki Quizizz kabi platformalarida savollar va testlar bilan yanada mustahkamlab olishi mumkin. Bundan tashqari Duolingo, Babbel yoki Memrise ham o'qitish jarayonini qiziqarli va interfaol tarzda olib borishga yordam beradi. Mobil ilovalar, jumladan, Hello talk, Duolingo yoki Quizlet ilovalari o'rganuvchilar uchun ajoyib imkoniyat bo'la oladi.

O'quvchilarni darsga yanada qiziqtirish va ularning til ko'nikmalarini oshirib borish maqsadida ko'plab zamonaviy metodlar ishlab chiqildi. Bular

⁴ Jalolov Jamol. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012. C 85-90



“Flipped Classroom” (aks o’qitish) hamda fan va tilni integratsiyalashtirish asosida o’qitish usullaridir. “Teskari o’qitish” (Flip teaching) usuli hozirda o’qitishning eng zamonaviy metodlaridan biri bo’lib, unda o’qituvchilar darsni an’anaviy tarzda tushuntirib berishmaydi, balki yangi materiallarni o’quvchilar uyda mustaqil internet yoki berilgan videolar orqali o’rganib darsda muhokama qilish uchun tayyorlanishadi.⁵ Dars jarayonida esa o’quvchilar mavzuni tushuntirib berishadi. Bu til o’rganishda va muloqotni rivojlantirishda yaxshi imkoniyat bo’ladi. “Chet tillarini o’rganishda fan va xorijiy tilni uyg’unlashtirish nafaqat til o’rganish, balki boshqa fanlarni o’zlashtirish uchun ham foydali bo’ladi”, -deydi David Marsh⁶. Bu metodda o’quvchilar tilni boshqa fanlar, xususan, matematika, tarix yoki geografiya orqali o’rganadilar. Masalan, ingliz tilida biologiya yoki geografiya kabi fanlarga oid tushunchalar o’tiladi, bu esa o’rganuvchilar uchun tilni chuqurroq o’zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, bu metod bilan o’sha til adabiyotini ham o’rgatish mumkin. Bunda adabiyotlar o’rganuvchilar yoshi va dunyoqarashiga qarab tanlanishi maqsadga muvofiq bo’ladi. J. Jalolov badiiy adabiyotdan foydalanishning bir necha muhim jihatlarini ajratib ko’rsatadi:

Lug’at boyligini oshirish – badiiy adabiyot orqali o’quvchilar turli xil tasviriy ifodalarni va iboralarni, shuningdek, ularni qo’llash usullarini o’rganadi.

Grammatikani mustahkamlash – matnlarni o’qish bilan grammatik qoidalar tabiiy ravishda o’zlashtiriladi.

Talaffuz va intonatsiyani yaxshilash – audiokitoblarni eshitish va badiiy asarlarni mutolaa qilish o’quvchilar talaffuzi va intonatsiyasini yaxshilashga yordam beradi.⁷

Xulosa qilib aytganda, chet tilarini samarali o’qitish uchun an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy metodlardan ham foydalanish kerak. Krashenning nazariyasiga ko’ra, tilni tushunish grammatik qoidalarini yodlashdan

⁵ Bishop J., Verleger M. A. The flipped classroom: A survey of the research // 2013 ASEE annual conference & exposition. – 2013. – C. 23.1200. 1-23.1200. 18.

⁶ Marsh D. Content Language Integrated Learning (CLIL). A Development Trajectory. – 2013.

⁷ Jalolov Jamol. Chet til o’qitish metodikasi. “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent - 2012



ko'ra eshitish va o'qish orqali yaxshiroq shakllanadi. Ammo bu mustaqil ravishda yetarli bo'lmay, muloqot yordami bilan samaraliroq bo'ladi. Shuningdek, chet tillarini o'qitishda adabiyotning ham o'rni katta bo'lib, bu o'quvchilarda tilni o'rganish jarayonini yanada tezlashtiradi. Shunday ekan, o'qitish jarayonini zamonaviy metodlar va adabiyot bilan integratsiyalashtirish bolalarning darsga qiziqishini oshiradi hamda bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Beatty, K. (2013) "Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning". roudledge.com
2. Bergmann J. Flip your classroom: Reach every student in every class every day //International Society for Technology in Education. – 2012.
3. Bishop J., Verleger M. A. The flipped classroom: A survey of the research //2013 ASEE annual conference & exposition. – 2013. – C. 23.1200. 1-23.1200. 18
4. Coyle D. et al. CLIL: Content and language integrated learning. – Cambridge: Cambridge university press, 2010. – T. 9. – C. 1-10.
5. Ибрагимова З. Chet tillarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samarali usullari //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 5/5. – С. 341-344.
6. Inogamova N. A. et al. XORIY TILLARNI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI //MASTERS. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 22-23.
7. Jalolov Jamol. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.
8. Krashen S. Principles and practice in second language acquisition. – Pergamon press, 1982.
9. Krashen S. D. Principles and practice //Learning. – 1982. – Т. 46. – №. 2. – С. 327-69.
10. Krashen S. The input hypothesis: An update //Linguistics and language pedagogy: The state of the art. – 1992. – С. 409-431.



11. Marsh D. Content Language Integrated Learning (CLIL). A Development Trajectory. – 2013.
12. Met M. Learning language through content: Learning content through language //Foreign language annals. – 1991. – T. 24. – №. 4. – C. 281.
13. Nurilla o'g'li I. Q. et al. CHET TILI KOMPETENSIYALARINI O'QITISHDA XORIJIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI AMALIYOTGA SAMARALI JORIY ETISHNING AHAMIYATI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 30-33.